



SOCIAL SECURITY AND SOCIAL PROTECTION OF OLDER PERSONS AT THE INTERNATIONAL LEVEL

M. Abdurakhmanova

Assistant professor
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

M. Mullajonov

master's student
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan

F. Egamberdiyev

student
Tashkent State Law University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, civil society, social worker, social security.

Received: 28.06.22

Accepted: 30.06.22

Published: 02.07.22

Abstract: The article scientifically investigates the problem of social security and social protection of the elderly at the international level. At the same time, the system of social security and social protection of elderly people around the world was studied.

XALQARO DARAJADA QARIYALARING IJTIMOIY TA'MINOTI VA IJTIMOIY HIMOYASI

M. Abduraxmonova

Dotsent
Farg'onan davlat universiteti
Farg'onan, O'zbekiston

M. Mullajonov

magistrant
Farg'onan davlat universiteti
Farg'onan, O'zbekiston

F. Egamberdiyev

talaba
Toshkent davlat yuridik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy xodim, ijtimoiy ta’milot.

Annotatsiya: Maqolada xalqaro darajada qariyalarning ijtimoiy ta’miloti va ijtimoiy himoya masalasi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda jahon miqyosida qariyalarning ijtimoiy ta’miloti va ijtimoiy himoya tizimi o‘rganilgan.

СОЦИАЛЬНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ И СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ

М. Абдурахманова

Доцент

*Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан*

М. Муллаажонов

магистрант

*Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан*

Ф. Эгамбердиев

студент

*Ташкентский государственный юридический университет
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, гражданское общество, Социальный работник, социальное обеспечение.

Аннотация: В статье научно исследована проблема социального обеспечения и социальной защиты пожилых людей на международном уровне. Одновременно изучалась система социального обеспечения и социальной защиты пожилых людей во всем мире.

KIRISH

Aholining qarishi juda aralash hodisadir. Bir tomonidan, bu jamiyat hayotining yaxshilanganligidan dalolat beradi, chunki “odamlar yaxshi ovqatlanish, sanitariya sharoitlari, tibbiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim va iqtisodiy farovonlik tufayli uzoq umr ko‘rishadi[1]”. Boshqa tomonidan, aholining qarishi butun dunyo hamjamiyatini qiyinlashtirmoqda va shoshilinch ravishda qarilik davridagi odamlarning huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy mohofazalash uchun davlatlar tomonidan chora tadbirlarni amalga oshirish masalasi asosiy e’tiborda. Xalqaro hamjamiyat 80-yillardan boshlab qarilik davridagi odamlarga nisbatan siyosatni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytira boshladi. 1982-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi qarish bo‘yicha Vena xalqaro harakat rejasini tasdiqladi va bu

quyidagilarni tasdiqladi: “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan asosiy va ajralmas huquqlar to‘la qarish jarayoniga hech qanday istisnosiz amal qilinadi”[2].

Qarilik davridagi odamlarning o‘rni va roli to‘g‘risidagi qarashlar 1991-yil 16-dekabrdan BMTning Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Qariyalarning to‘liq hayotini ta’minalash” BMT tamoyillarida to‘liq aks etgan. Bunda 18 tamoyillar besh guruhga birlashtirilgan: mustaqillik, ishtirok etish, parvarish qilish, ichki potentsialni, qadr-qimmatni ro‘yobga chiqarish[3].

1992-yilda Vena konferensiyasida qarish bo‘yicha xalqaro harakatlar rejasining o‘n yilligi munosabati bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi qarish to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qildi[4], unda qarish bilan bog‘liq milliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga chaqirilgan. Dekloratsiyada 1992–2001 yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi belgilangan.

ASOSIY QISM

Keyingi qadam 2002-yilda Madridda Qarish to‘g‘risidagi BMTning Ikkinchisi Jahon Assambleyasi natijasida Madridning qarish bo‘yicha xalqaro harakatlar rejasi qabul qilingan[5], unga muvofiq davlatlar inson huquqlarini himoya qilish va qariyalarni ijtimoiy muhofazalash hamda kamsitilish va e’tiborsizlikni yo‘q qilish bo‘yicha majburiyatlarini tasdiqladilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 1999-yilni Xalqaro qariyalar yili deb e’lon qilishga qaror qildi. Ushbu e’lon Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan 1998-yil 1-oktyabr – Xalqaro qariyalar kunida e’lon qilingan.

Qarilik davridagi odamlarning zaifligi butun dunyoda tan olingan. 2009-yil iyul oyida II Butunjahon assambleyasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun qarilik davridagi odamlar «alohida himoyaga va qo‘llab-quvvatlashga» muhtoj ekanliklarini aytishdi[6]. Gap shundaki, qarilik ularni kasalliklarga ham, zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaga nisbatan ko‘proq zaiflashtiradi. Iqtisodiy va moliyaviy inqiroz davrida qariyalar ayniqsa himoyasiz bo‘lib qoladilar. Ular firibgarlik kabi har xil turdagil jinoyatlarga nisbatan yordamga muhtojdirlar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ta’kidlaganidek, “... qarilik davridagi odamlar ijtimoiy himoyaga muhtoj guruh bo‘lib, bir tomonidan jamiyat rivojiga alohida hissa qo‘sadi, boshqa tomondan esa alohida himoya va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj”[7].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Navi Pillay 2010-yilda bergan bayonotida qarilik davridagi odamlarni har tomonlama huquqiy himoya qilish zarurligini ta’kidladi, bu ko‘pincha “jamiyatning eng himoyasiz va unutilgan qismi” hisoblanadi[8]. Uning fikricha, insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini rag‘batlantirish va himoya qilish, shu jumladan rivojlanish huquqi, barcha yoshdagil odamlar

uchun ijtimoiy integratsiyalashgan jamiyatni yaratish uchun zarur shartdir, bunda qarilik davridagi odamlar kamsitishsiz va tenglik asosida to‘liq ishtirok etadilar.

1966-yildagi “Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida” xalqaro pakning 9-moddasi (bundan keyin - Pakt) “har kimning ijtimoiy ta’minotga, shu jumladan ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquqi”, qarilik yoshida nafaqa olish huquqi bilvosita tan olingan.

Yuqorida aytilganlarning barchasini inobatga olgan holda, shuni e’tirof etish kerakki, xalqaro hujjalarning qabul qilinishi qariyalarning muammolari to‘g‘risida aholining xabardorligini oshiradi, qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf qiladi va qarilik davridagi odamlarning huquqlarini hurmat qilish va ijtimoiy himoyasi va ta’minoti bo‘yicha davlatlarga aniq majburiyatlarni yuklaydi.

Qarilik davridagi odamlarni ijtimoiy himoya qilish asoslarini tavsiflashda, uning ikkita asosiy funksiyalari aniqlanadi: va ijtimoiy xizmatlar (hayot muhitida qo‘llab-quvvatlash) va ijtimoiy ta’minot (pensiya to‘lash, nafaqa berish) bo‘yicha xizmatlar. Qarilik davridagi yoshdagি kishilarga eng muhim xizmat turlarini taqdim etishning asosiy tizimlari “rasmiy” va “norasmiy” deb nomlanadi. Rasmiy xizmatlarga hukumat, hayriya, xususiy muassasalar va agentliklar, norasmiy xizmatlarga oila a’zolari, do’stlari va qo‘shnilari kiradi. Rivojlangan G‘arb davlatlari va AQShda rasmiy xizmatlarni taqdim etishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular qariyalarga qariyalarning yashash joylarida taqdim etiladi.

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlardagi kunduzgi tibbiy yordam markazlaridan tashqari, nafaqat vaqtinchalik, balki doimiy yashashni taklif qiluvchi muassasalar mavjud. Masalan, Shvetsiyada bu uyda yashashni istamaydigan odamlar uchun keng qamrovli parvarish va davolash xizmatiga ega bo‘lgan qariyalar uchun uy. Qariyalar uchun uylar an’anaviy xizmat turidir va Shvetsiyada ko‘pgina qariyalar buni afzal ko‘rishadi. Buyuk Britaniyada pansionatlar vaqtincha yoki doimiy yashash joylarini taklif qiladilar, ularning aksariyati qariyalarga, oilasiz va qarindoshlari parvarish qilishga qodir bo‘lmaganlarga mo‘ljallangan.

Qariyalarni ijtimoiy himoya qilish borasida Osiyo mamlakatlari tajribasi ham e’tiborga loyiqidir. Osiyoning ko‘pchilik davlatlarida qariyalami ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning davlat, nodavlat va oilaviy yordam shakllari keng tarqalgan. Yaponiyada davlat darajasida ijtimoiy sug‘urtalash jamg‘armalari hisobidan yolg‘iz qarilik davridagi va nogironlarni kasal bo‘lgan holatlarda uy sharoitida tibbiy xizmat xarajatlarini qisman kompensatsiyalash dasturi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda yolg‘iz qariyalar va nogironlarni boqishda oilaga vaqtinchalik yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar soni ham ko‘paymoqda[8].

Yevropaning ko‘pchilik mamlakatlarida yolg‘iz qariyalarga uy sharoitida yordam ko‘rsatish tizimi tashkil qilingan. Jumladan, Vengriyada yolg‘iz qariyalar uchun maxsus

kunduzgi muloqotda bo‘lish va muolaja uylari faoliyat ko‘rsatadi. Fransiyada yolg‘iz qariyalar oila homiyligiga olingan, Boltiq bo‘yi mamlakatlari Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg‘iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronat xizmati rivojlangan. Ushbu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xizmat hodimlari yolg‘iz qarilik davridagi bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig‘ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbatdosh bo‘ladi.

Jumladan, Indoneziyada qariyalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordam boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib, u davlat va oilaviy yordamdan tashkil topgan. Indoneziyaliklar qariyalarni, oilaning qarilik davridagi a’zolarini chuqur hurmat qilishadi. Indoneziya olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, Indoneziyada qariyalar uchun asosiy daromad manbai oila hisoblanadi.

Hindistonda qariyalarni mutlaq va nisbiy sonining ortishi muhim demografik muammo hisoblanadi. Mamlakat hozirgi vaqtida qariyalar soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1991-yilda mamlakatda qariyalar (60 yosh va undan yuqori) soni 55,3 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib ulaming soni 75,9 mln kishiga yetgan yoki 37,2 foizga ko‘paygan BMT demograflarining taxminiga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatda qariyalar soni 136,5 mln kishiga yetadi (jami aholining 10 % i). Bu mamlakatda ijtimoiy-demografik siyosatni shakllantirish va qariyalar uchun xizmatlami rejalashtirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Hindistonda muhtoj qariyalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish an’anasi mavjud. Qariyalar, jumladan, kambag‘al, kasal, uysiz qariyalar davlat va turli hayriya tashkilotlaridan yordam oladi. Hindiston hukumati 1984-yilda qariyalarga xizmat ko‘rsatuvchi birinchi ko‘ngillilar tashkilotiga rasmiy mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. 1992-yilda mamlakatda “Aholi farovonligi” vazirligi tomonidan “Qarilik davridagi yoshda bardamlik” dasturi ishlab chiqilgan. Uning maqsidi qariyalar va kunduzgi muloqotda bo‘lish uylarida ishlovchilar uchun zarur subsidiyalar olishda yordam ko‘rsatuvchi ko‘ngilli tashkilotlar faoliyatini rag‘batlantirish, qariyalar uchun bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Hozirgi vaqtida Hindistonda davlat darajasida faoliyat ko‘rsatayotgan ixtiyoriy hayriya tashkilotlari mavjud:

- Bharat Samai pensionerlar Assotsiatsiyasi;
- CARITAS Hind tashkiloti;
- Yoshi bo‘yicha pensionerlaming Hind Assotsiyasi;
- “Qariyalarga yordam” jamiyati;
- Qariyalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish jamiyati.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Polsha va boshqalar, qarilik davridagi odamlar uchun turli xil o‘quv muassasalari (maxsus kurslar, o‘quv markazlari, davlat universitetlari va fakultetlari) ochilmoqda, ularda psixologik, iqtisodiy va sotsiologik tadqiqotlar asosida o‘quv dasturlari yaratilmoqda.

Yaponiyada 60-yillarda qariyalar uchun maxsus sinflar tashkil etildi. Yaponiya ta’lim tizimi doirasida ish olib boradigan tashkilotlar turli xil o‘quv dasturlarni taklif qilishdi, 1965-yilda hukumat mahalliy hokimiyatlarga qariyalar uchun uzlusiz ta’lim tizimini ishlab chiqishni topshirdi. 1980-yildan beri ushbu tizim muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Gollandiya “Uzoq muddatli pensiya” loyihasi doirasida qarilik davridagi odamlarni o‘qitish bilan shug‘ullanadigan ishlab chiqarish va muassasalar sohasida korxona va tashkilotlar o‘rtasida yaqindan hamkorlik qiladi. Ushbu loyihaning maqsadi pensiya yoshidagi ishchilaraga ta’lim olish imkoniyatlarini berishdir. Besh va yetti kunlik kurslar mahalliy markazlarda yoki ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladi. Ularning vazifasi odamlarga pensiya bilan bog‘liq o‘zgarishlardan qanday omon qolishlarini o‘rganishga yordam berishdir.

Shvetsiyada aholining ijtimoiy himoya qilish tizimi shved “umumiy faravonlik davlati” ning asosiy xususiyati hisoblanadi. Davlat ijtimoiy nochor aholi toifalariga ijtimoiy ne’matlarni qayta taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Jamiyatda yuzaga kelgan ehtiyojlar darajasiga mos nafaqalar turlarining xilma-xilligini (pensiyalar, nafaqalar, uylarda qariyalarni yashashi ta’minalashni) belgilaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida “Mediker” milliy davlat dasturi 65 yoshdan oshgan fuqarolar va nogironlar uchun tashkil etilgan. Bu dastur asosan kam ta’minlangan aholi qatlamlari uchun tashkil etiladi. Bu dastur umumiy soliqlardan moliyalashtiriladi.

AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta’minoti, odatda, uch manba: pensiya, ya’ni ijtimoiy ta’minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo‘ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta’minlab berishi lozim bo‘ladi.

XULOSA

Ko‘pgina mamlakatlar qarilik davridagi yoshdagi aholini jalb qiladigan dastur va tashabbuslarni taklif qilishgan. Ushbu dasturlar va tashabbuslar rivojlanib, tarqalmoqda va ba’zi hollarda davlat dasturlariga aylantirilmoqda; Qarish populyatsiyasining ahamiyati va oqibatlari boshqa siyosatchilar tomonidan ham tan olinadi. Qayerda bo‘lsa ham, qarilik davridagi fuqarolar davlatning moliyaviy yordamida boshqa yosh guruhlariga nisbatan ustunlikka ega, chunki ular nafaqat umumiy xizmatlar va infratuzilmani, balki yoshga qarab yo‘naltirilgan maxsus moliyalashtirish vositalaridan ham foydalananadilar. Bir qator mamlakatlarda qarilik davridagi

kishilarning qarishi va ehtiyojlari bilan shug‘ullanadigan mustaqil maslahat organlari, masalan ilmiy va ishbilarmon doiralar, nodavlat tashkilotlari (NNT) vakillari mavjud. Bunday organlarning vazifasi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko‘maklashish va maslahat berish, ular shuningdek, hukumatlarning haqiqiy harakatlarini kuzatish va baholash uchun kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari mumkin, Chunki qarilik davridagi odamlarning ehtiyojlari ko‘pincha yuqorida ko‘rinmaydi. Bunday maslahat organlarining vazifasi faktlarni, mulohazalar va fikrlarni amaliy tavsiyalarga tarjima qilish, taklif qilinayotgan choralarining ehtimoliy oqibatlarini baholash, vaziyatni yaxshilash bo‘yicha takliflar berish va qarorlarning mahalliy va jamoatchilik darajasida bajarilishi ustidan yaqin va doimiy nazorat o‘rnatishga yordam berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Резюме«Старение в XXI веке: триумф и вызов» // Издание Фонда Организации Объе-диненных Наций в области народонаселения(ЮНФПА), Нью-Йорк, и организации «Хелпэйдж Интернэшил», Лондон. United Nations Population Fund (UNFPA) and HelpAge International, 2012.

2. Вена халқаро қариш бўйича ҳаракат режаси , 1982 // БМТ. Нью-Йорк. 1983. URL: <http://www.un.org/es/globalissues/ageing/docs/vipaa.pdf>.

3. Кексалар учун Бирлашган Миллатлар ташкилоти тамойиллари. Резолюция ГА ООН46/91 от16 декабря1991 г. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/oldprinc.shtml 4b

4. Декларация по проблемам старения. ГА ООН47/5 от16 октября1992 г. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declold.shtml.

5. Всемирная ассамблея по проблемам старения. Мадридский международный план действий по проблемам старения 2002 г. // Док. ООН/CONF.197/9. https://www.un.org/en/events/pastevents/pdfs/Madrid_plan.pdf 18c

6. Second World Assembly on Aging: Report of the Secretary General, 6 July 2009. UN Doc. A/64/127. 34p

7. Follow-up to the 2nd World Assembly on Ageing : report of the Secretary-General A/64/127 – <https://digitallibrary.un.org/record/661475>

8. «Millions of older persons are denied their rights» — UN human rights chief. <http://www.ohchr.org/en/NewsEvents/Pages/DisplayNews.aspx?NewsID=10402&LangID=E>.

9. Зарубежный опыт социальной работы: Учебное пособие / Е. И. Холостова, А. Н. Дашкина, И. В. Малофеев. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2013. — 368 с.

10. A.V.Vaxabov, Zaxidova, B. va boshq. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik ; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 168 b.
11. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2017). World Population Ageing 2017. Highlights.
12. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 4th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 45
13. Абдурахмонова, М. М., & Орипов, А. (2019). Основные направления и приоритеты научной актуализации информационной парадигмы гражданского общества. *Мировая наука*, (12), 56-59.
14. Абдурахмонова, М. М., & Мирзажонов, Ж. (2020). Роль конституции в построении правового государства и гражданского общества. *Теория и практика современной науки*, (3), 9-11.
15. Абдурахмонова, М. М., & Маллабоев, Ш. А. (2016). UZBEK MODEL OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Учёный XXI века*, (3-4 (16)), 58-63.
16. Madaliyeva, F., & Abduraxmonova, M. (2021). O 'ZBEKISTONDA MAKTAB BITIRUVCHI O 'QUVCHILARINI KASB-HUNAR BILAN TA'MINLASHDA IJTIMOIY ISH AMALIYOTI. *Студенческий вестник*, (8-3), 94-95.
17. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'ZBEKISTONDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI. *Интернаука*, (7-2), 91-93.
18. Sharipova, K., & Abduraxmonova, M. (2021). O 'ZBEKISTON MAKTABLARIDA MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHISI BO 'LGAN O 'QUVCHILAR BILAN IJTIMOIY ISH AMALIYOTI ISTIQBOLLARI. *Студенческий вестник*, (8-3), 82-83.
19. Abdurakhmonova, M., Karimova, G., & Karimova, M. (2021). ROLE OF ETHICAL CULTURE IN PREVENTING VIOLENCE AMONG SPUPILS. *Интернаука*, (11-2), 50-51.
20. Karimov, N. (2022). IMPORTANCE OF STUDYING AND PROMOTING ORIENTAL CULTURE AND HERITAGE. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2(03), 28-33.
21. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.
22. Abdurakhmonova, M. M., Akramov, D. O., & Egamberdiev, F. A. (2020). Conceptual aspects of the development of social work in the new social protection system of Uzbekistan. *Chief Editor*, (5), 8.